Bilim
Innovatsiya
Barqaror rivojlanish


Oktabr
№10, 2026

AGROBIZNES, FAN VA TEXNOLOGIYALAR

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON
JURNALI

Агробизнес, наука и технологии

Agribusiness, science and technology



№ 083688

ISSN:
3060-5245

Toshkent-2026

Platform & workflow by
OJS / PKP

BOSH MUHARRIR
Oblomuradov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.
Bosh muharrir o'rinbosarlari:
Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.
Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.
Farmonov To'lqin Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.
Muharrir:
Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.
Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:
Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)
Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)
Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)
Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))
Daiva Makutenene – professor, (Vitautas Magnus universiteti, Litva)
Xaitboyeva Nargiza Alikulovna - i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)
Tahrir hay'ati:
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:
Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;
Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;
Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;
Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;
Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;
Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;
Boltayev Abror Sayitmuradovich – i.f.d. (DSc), dotsent;
Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;
Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;
Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;
Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);
Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;
Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Javliyev Nuriddin Bektemir o'g'li – i.f.f.d. (PhD).

06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:
Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);
Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);
Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);
Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);
Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;
Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Xudayqulov Jonibek Bozarovich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;
Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;
Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;
Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);
Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;
Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);
Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);
Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS
Toshkent davlat agrar universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR
Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.
Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal
E-mail: licht-1989@mail.ru
Jurnalning rasmiy sayti: https://www.agrobiznesjournal.uz
Tel: +(998) 93 439 30 00

JURNALNING ILMIYLIGI:

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 1107 sahifa.
2026-yil, №10. oktabr.

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLARI

KONSTANTIN IVANOVICH KURPAYANIDI
Green energy transition in Central Asia: capacity growth, technological diversification and system constraints.....11
TURSUNKULOVA GULCHIROY BURXONOVNA
Meva-sabzavotchilik korxonalarida biologik aktivlarni hisobga olishni xalqaro standartlar asosida takomillashtirish.....24
MO‘MINOV ABDUVALI AKBARALIEVICH, DJO‘RAEV MUQIMJON YAQUBJONOVICH
Tritikale seleksiyasida molekulyar markerlardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi: QTL, SSR, SNP va KASP yondashuvlari asosida.....30
KARIMOV NURBEK DEXKANOVICH
Yeryong‘oq yetishtirishda oqqanotga qarshi kimyoviy himoya tadbirlarining iqtisodiy samaradorligini baholash.....43
SAYIPOV BEGZOD RAHIMOVICH
Valyuta kursi tebranishlari indeksini hisoblash va baholash.....53
KARIMOV NURBEK DEXKANOVICH
Yeryong‘oq ekinlarida o‘rgimchak kanaga qarshi kimyoviy kurash choralarining iqtisodiy samaradorligini baholash.....63
SHOMURODOV TOHIR BOYMUROD O‘G‘LI
Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda aholi daromadlarining o‘rni haqidagi nazariy yondashuvlar.....73
МУСТАФОКУЛОВА ЗАРИФА
Сравнительный анализ лидерства в условиях кризиса и роль молодых лидеров в развитии.....80
BOZOROVA MUHABBAT TOXTAYEVNA
Korxonalarda davr xarajatlarining iqtisodiy mohiyati, mazmuni va tasnifi.....87
RAXIMJONOVA SHOHSANAM BAXODIROVNA
Davlat-xususiy sheriklik asosida ijtimoiy soha infratuzilmasini rivojlantirishda "Value for Money" (VfM) baholash mexanizmini takomillashtirish.....95
QURBANOVA OYDIN TO‘LQIN QIZI
Ishlab chiqarish korxonalari raqobatbardoshligini baholashning integral ko‘rsatkichini shakllantirish.....101
SADIKOVA SHOHIDA OBIDQUL QIZI
O‘zbekistonda piyoz yetishtirishning iqtisodiy o‘rni va samaradorligi.....108
XAKIMOV RASHID
Oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashda sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarning o‘rni va samaradorligi.....119
TOJIMATOV IZZATBEK IKROMALI O‘G‘LI
Don mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida intellektual marketing strategiyasini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish.....133
SODIQOVA GAVHAR XAYRULLA QIZI
Xodimlarni boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi.....142
ERGASHEV ASADBEK ULUG‘BEK O‘G‘LI, TURSUNOV G‘IYOS SUNNAT O‘G‘LI
Meva-sabzavotlarni qayta ishlashda hosil bo‘ladigan ikkilamchi resurslarni biotexnologik qayta ishlash va ulardan samarali foydalanish.....148

RASULOV XAMIDJON YAKUBOVICH
Raqamli texnologiyalar va CRM tizimlarining kichik biznesdagi o‘rni.....155
BOZOROVA MUHABBAT TOXTAYEVNA
Korxonalarda davr xarajatlarini buxgalteriya hisobini tashkil etish va uning tahlili.....168
YULDASHOV ABDUMALIK ILXOMOVICH
Ekoturizmning hududiy iqtisodiy rivojlanishga ta’sirini ekonometrik baholash.....185
YULDASHOV ABDUMALIK ILXOMOVICH
Ekoturizmning hududiy iqtisodiy rivojlanishdagi rolini baholashning nazariy-metodologik asoslari.....192
MUHAMMADIEV NAUFALBEK AZIZXON O‘G‘LI
Elektron tijoratda sun’iy intellektdan foydalanishning kichik biznes savdo hajmiga ta’siri.....202
АБДУЛЛАЕВ АКМАЛЖОН АБДУЖАЛИЛОВИЧ
Процедура нормирования частных показателей при оценке ресурсного потенциала аграрного сектора: сравнительный анализ методов и обоснование выбора.....210
XASANOVA RUXSORA RASULJON QIZI
O‘zbekistonda elektron tijoratni rivojlantirishning hududiy xususiyatlari va iqtisodiy samaradorligini oshirish.....223
UMAROVA XUSNORA DILMUROD QIZI
Orolbo‘yi mintaqasida xizmat ko‘rsatish korxonalarini moslashuvchan (adaptiv) boshqarishning ma’lumotlarga asoslangan modelini takomillashtirish.....229
АБДУЛЛАЕВ АКМАЛЖОН АБДУЖАЛИЛОВИЧ, ХОЛБЕКОВ ЖУРЪАТ АБДИНАБИЕВИЧ
Теоретико-методологические основы оценки ресурсного потенциала аграрного сектора: концептуальный подход и методика интегральной оценки.....234
UMARALIYEV DIYORBEK SHUKIRALI O‘G‘LI
Tomchilatib sug‘orish texnologiyasini joriy etishning fermer xo‘jaliklari xarajat va daromadlariga ta’siri: subsidiya samaradorligining iqtisodiy bahosi (2019–2025 yillar).....247
MIRAXMEDOVA KAMOLA
O‘zbekistonda turizm korxonalarini strategik boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish.....254
RAVSHANOVA ORZIGUL INOYAT QIZI
O‘zbekistonning xalqaro soliq tizimiga integratsiyasi: BEPS minimum standartlari va ularning milliy soliq siyosatidagi ahamiyati.....261
IRGASHEV ABBOS JUMANAZAROVICH
Anor yetishtirish va sotish qiymat zanjirida ishtirokchilarning daromadlari ulushini iqtisodiy baholash.....274
BAXADIR ADILCHAEV
Agroturizm qishloq iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish va hududlarning barqaror rivojlanish vositasi sifatida.....283
XO‘JAMOVA LATOFAT ASADULLAEVNA
Yashil iqtisodiyot sharoitida agrobiznesda innovatsion jarayonlarni boshqarishning o‘ziga xos xususiyatlari.....290
BOZOROV BOBUR HAQBERDIYEVICH
Qurilishni moliyalashtirish samaradorligiga narx omillarining ta’sirini ekonometrik baholash.....297
RAVSHANOVA ORZIGUL INOYAT QIZI
Chegaralararo soliq munosabatlari: muammolar va rivojlanish istiqbollari.....307

KILICHEV ALISHER AKRAMOVICH
O‘zbekiston kimyo sanoati aksiyadorlik jamiyatlarida mavsumiylikning moliyaviy barqarorlikka ta’siri: panel tahlil (2018–2026-yillar)……322
IRGASHEV ABBOS JUMANAZAROVICH
Surxondaryo viloyatida anor ishlab chiqarish va sotish samaradorligini oshirish imkoniyatlari……331
ЛЯМКИНА ВИКТОРИЯ АЛЕКСАНДРОВНА, НАБИЕВА АНОРГУЛ МУХАМЕТКАЗИЕВНА
Механизмы трансформации и управления предпринимательским университетом в условиях цифровой экономики……338
YUSUFALIYEV OLIMJON ABDURAXMONOVICH
Aholi farovonligini oshirishda tadbirkorlik faoliyati samaradorligini baholash metodologiyasini takomillashtirish……347
SAYITQULOV JAHONGIR ILHOMOVICH
Tijorat banklarida raqamli bank xizmatlarini takomillashtirish istiqbollari……358
KILICHEV ALISHER AKRAMOVICH
Mavsumiy moliyaviy siklni identifikatsiyalash va moliyaviy barqarorlikning mavsumiy tuzatilgan ko‘rsatkichlari (mineral o‘g‘itlar ishlab chiqaruvchi korxona misolida)……365
QODIROV ZOHIDJON ERALIEVICH
Suv resurslarini boshqarishning iqtisodiy mohiyati va tamoyillari……373
ZAFAR QODIROV ABDIVAXOBOVICH
Long-term asset valuation and accounting in Uzbekistan: a comparative analysis of national accounting standards……381
SHAVQIDINOVA DILNAVOZ
AQSH va Yevropa ittifoqi mamlakatlari organik meva-sabzavotlar sertifikatlaridagi farqlar……389
KUBAYEV DJASUR ABDUMUMINOVICH
Iqtisodiyotni raqamlashtirishda yer resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish omillari……395
IBODILLAYEV HABIBULLA ABDULLAYEVICH
Madaniy meros obyektlarida turizm tadbirkorligini rivojlantirish orqali aholi bandligini ta’minlash yo‘llari……401
SHAVQIDINOVA DILNAVOZ
IFOAM – organics international: organik standartlar, sertifikatlash, organik bozor va siyosat bo‘yicha statistik tahlili……407
MAYLIYEVA SADOQAT SAFAYOZOVNA
Mintaqada tadbirkorlik salohiyatidan samarali foydalanishning ustuvor yo‘nalishlari (Xorazm viloyati misolida)……413
SHIRINOV UCHQUN ABDUXALILOVICH
MHXS talablari asosida tashqi segmentar hisobotni shakllantirish metodikasi..421
ABDINAZAROV XUSAN SHAYMANOVICH, NORQOBILOVA FERUZA ABDUXOMIDOVNA
Klasterlash va infratuzilma o‘rtasidagi bog‘liqlikni ekonometrik modellashtirish……430
SA’DULLAYEVA SAYYORA NASILLO QIZI
Neft-gaz sanoati korxonalarida moddiy xarajatlarning kompleks tahlili……439
ABDINAZAROV XUSAN SHAYMANOVICH, NORQOBILOVA FERUZA ABDUXOMIDOVNA
Klasterlashni rivojlantirishning tashkiliy mexanizmlari……447

SATTAROV SHUXRAT XASANOVICH
O‘zbekistonda xizmatlar sohasining rivojlanishi va diversifikatsiya tendensiyalari……458
KAMALKARIEVA NILUFAR XALIKBEKOVNA
Qurilish materiallari korxonalarida yangi mahsulotlarni o‘zlashtirish va sifatni oshirishning iqtisodiy samaradorligini baholash……467
СЕЙТНАЗАРОВ БАХАДИР МУРАТБАЕВИЧ
Экономическая оценка устойчивого развития аграрного сектора в условиях дефицита водных ресурсов (на примере Республики Каракалпакстан)……475
TURDIYEV ULUG‘BEK QAYUMOVICH
Sanoat o‘sishining uzoq muddatli rivojlanish tendensiyalarini aniqlash……484
OBLOQULOV ABDURAUF OLIMJON O‘G‘LI
Institutsional iqtisodiyot va iqtisodiy o‘sish: rasmiy va norasmiy institutlarning roli……493
JUMANAZAROV KODIRJON SALYAYEVICH
Sanoat korxonalarida raqamli strategiyani shakllantirishning metodologik yondashuvlari……501
NARMAMATOV IXTIYAR BAXTIYAROVICH, SHERMATOVA NARGIZA ZAFAR QIZI
Zamonaviy bozor sharoitida xizmat ko‘rsatish sohasi subyektlarining iqtisodiy barqarorligini ta’minlash strategiyalari……512
ALIYEV AZIM TOLIB O‘G‘LI
Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini boshqarish usullari va uslublarini takomillashtirish: nazariy-amaliy tahlil va modellashtirish……518
ABDULLAYEVA AZIZA MURAT QIZI
Ipoteka kreditlashning nazariy asoslari va xorijiy modellari: AQSH, Germaniya, Qozog‘iston va Malayziya tajribasi……528
YUNUSOV BEGENCH MAVLANBERDIEVICH, MINASIPOV BURXAN BAXTIYOROVICH
Suv xo‘jaligi infratuzilmasidan samarali foydalanish — iqtisodiy barqarorlikning muhim omili……539
АЙТБАЕВА ГУЛЬЗАДА КУАНЫШБАЕВНА
Эффективные механизмы государственно-частного партнерства в сфере услуг……546
SADIQOV ZAFARBEK ADILBEKOVICH
Banklarda likvidlik ko‘rsatkichlarini buxgalteriya hisobi ma’lumotlari asosida tahlil qilish……554
ODILOVA DILNOZA BARNAYEVNA
Milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishda intellektual kapitalning ko‘p omilli ta’sir mexanizmini takomillashtirish……563
IBODULLAYEV DOSTON SOBIRJON O‘G‘LI, DJURAYEV BEKZOD BEKMATOVICH
Sutchilik fermer xo‘jaliklarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish va ozuqa bazasini rivojlantirish istiqbollari……574
QULMATOV CHORI ANOROVICH
Korxonalar moliyasini nazorat qilishning uslubiy asoslari……582
YAKUPOVA AYZADA NIZAMATDINOVNA
Agrar sohada barqaror rivojlanish mexanizmlarining xorijiy tajribasi va uni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish……590
XUDAYBERGANOV ZOXIDJON DJURAKULOVICH
Xizmat sohasida raqobatbardoshlik nazariyalari evolyutsiyasi va ularning raqamli iqtisodiyotdagi talqini……602
XONTO‘RAYEV IBROXIM ABDIKAMOL O‘G‘LI
Oliy ta’limda sun’iy intellekt asosidagi intellektual axborot tizimlaridan foydalanish……613

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

UO‘K: 338.43:636.085(575.1)

SUTCHILIK FERMER XO‘JALIKLARINI DAVLAT TOMONIDAN QO‘LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH VA OZUQA BAZASINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

IBODULLAYEV DOSTON SOBIRJON O‘G‘LI
Qishloq xo‘jaligi oziq-ovqat sohasida xalqaro tadqiqotlar markazi tayanch doktoranti
DJURAYEV BEKZOD BEKMATOVICH
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

Annotatsiya. Maqolada sutchilik fermer xo‘jaliklarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning amaldagi vositalari tahlil qilingan va ularning uchta tizimli kamchiligi aniqlangan: yordamning yakuniy mahsulotga yo‘naltirilganligi, dehqon xo‘jaliklarining sut subsidiyasidan chetda qolishi va naslli mol subsidiyasining ozuqa bilan ta’minlanganlikka bog‘lanmaganligi. Toshkent va Samarqand viloyatlari bo‘yicha 2030-yilgacha sut ishlab chiqarish va ozuqa ehtiyojining uch stsenariyli prognozi tuzilgan. Maqsadli stsenariyda sut 37,2 % ga oshganda ozuqa ehtiyoji 15,2–16,7 % ga ortishi, resurslar o‘zgarmasa taqchillik 45,3 va 59,5 % gacha chuqurlashishi ko‘rsatilgan. Davlat ko‘magini ozuqa zanjiriga qayta yo‘naltiruvchi oltita yo‘nalish taklif etilgan.
Kalit so‘zlar: davlat qo‘llab-quvvatlashi, subsidiya, ozuqa bazasi, sutchilik fermer xo‘jaligi, takroriy ekinlar, prognoz, ssenariy.

Аннотация. В статье проанализированы действующие инструменты государственной поддержки молочных фермерских хозяйств и выявлены три системных недостатка: ориентация поддержки на конечную продукцию, недоступность субсидии на молоко для дехканских хозяйств и отсутствие увязки субсидии на племенной скот с обеспеченностью кормами. Составлен трёхсценарный прогноз производства молока и потребности в кормах Ташкентской и Самаркандской областей до 2030 года. Предложены шесть направлений переориентации государственной поддержки на кормовое звено.
Ключевые слова: государственная поддержка, субсидия, кормовая база, молочное фермерское хозяйство, пожнивные культуры, прогноз.

Abstract. The article analyses current state support instruments for dairy farms and identifies three systemic shortcomings: support is targeted at final products, household farms are excluded from the milk subsidy, and the breeding cattle subsidy is not linked to feed availability. A three-scenario forecast of milk production and feed demand to 2030 is developed for Tashkent and Samarkand regions. Six directions for redirecting state support to the feed link of the value chain are proposed.
Keywords: state support, subsidy, feed base, dairy farm, catch crops, forecast, scenario.

KIRISH

Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qonun bilan mustahkamlangan [2]. Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish strategiyasida qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish tamoyili belgilangan [1]. So‘nggi yillarda chorvachilikni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qator qarorlar qabul qilindi [3, 4]. PQ-179-son qaror esa 2026–2028-yillar uchun qoramollar sonini 16,5 mln boshga yetkazish va ozuqabop ekinlar maydonini 1,5 baravar ko‘paytirish vazifasini qo‘ydi [9].

Qishloq xo‘jaligi ro‘yxatiga ko‘ra, mamlakatda 12,2 mln bosh qoramol bor[12]. Demak, maqsadga erishish uchun podani taxminan 35 % ga ko‘paytirish

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

talab etiladi. Bu ozuqa ehtiyojini ham sezilarli oshiradi. PQ-120-son dastur doirasida 23,8 mln t ozuqa jamg‘arilgan bo‘lsa-da [3], bu hajm kelgusidagi ehtiyojni qoplashga yetarli emas.

Tadqiqotning maqsadi – sutchilik fermer xo‘jaliklarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmini ozuqa bazasini mustahkamlash nuqtai nazaridan baholash, 2030-yilgacha ozuqa ehtiyojini prognoz qilish va qo‘llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish yo‘nalishlarini asoslash.

ADABIYOTLAR SHARHI

Ozuqa ishlab chiqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini davlat tartibga solishi, moliyalashtirish va bozor munosabatlarining birligi sifatida ko‘rish rus iqtisodchilarining ishlarida asoslangan [21, 22]. D.V. Kondratyev va hammualliflar ozuqa ishlab chiqarishni boshqarishni rejalashtirish, hisob va nazoratning yaxlit tizimi deb hisoblaydi [23]. Ekin tuzilmasini optimallashtirishda iqtisodiy-matematik modellashtirish asoslari A.M. Gataulin va hammualliflar tomonidan ishlab chiqilgan [24]. Tuzilmani optimallashtirish ozuqa ishlab chiqarishni 35 % gacha oshirishi va xarajatlarni 20 % gacha kamaytirishi ko‘rsatilgan [25, 26].

O‘zbekistonda chorvachilikni isloh qilish va sug‘urta himoyasi [13], sut sektorining qiymat zanjirini sanoatlashtirish muammolari [14] hamda chorvachilik samaradorligini oshirish yo‘llari [15] o‘rganilgan. Osiyo taraqqiyot banki va IFAD loyihalarida naslli mollarning genetik salohiyati ozuqa yetishmasligi sababli to‘liq namoyon bo‘lmasligi qayd etilgan [16, 19]. Biroq davlat ko‘magi vositalarini ozuqa zanjiri bo‘g‘inlari kesimida baholash va ularni ozuqa ehtiyojining uzoq muddatli prognozi bilan bog‘lash masalasi yetarli o‘rganilmagan.

Tadqiqotda normativ-huquqiy hujjatlarni tizimli tahlil qilish, iqtisodiy-statistik, trend va stsenariyli prognozlash hamda normativ-balans usullari qo‘llanildi. Axborot bazasi sifatida Statistika agentligining 2018–2024-yillardagi sut ishlab chiqarish ma’lumotlari [11] va 2026-yilgi qishloq xo‘jaligi ro‘yxatining dastlabki natijalari [12] olindi.

Sut ishlab chiqarish trendlari chiziqli ($y = a + bt$) va eksponensial ($y = A \cdot e^{Bt}$) modellar bo‘yicha eng kichik kvadratlar usulida baholandi, bunda t = 1 (2018-yil), …, 7 (2024-yil). Uch stsenariy tuzildi:

I (inertsion) – sut chiziqli trend bo‘yicha o‘sadi, mahsuldorlik yiliga 1,0 % oshadi;

II (mo‘tadil) – sigirlar soni yiliga 1,0 %, mahsuldorlik naslchilik va ozuqa tuzilmasini takomillashtirish hisobiga 3,0 % oshadi;

III (maqsadli) – sut PQ-34-son qarordagi sur’atda (yiliga 5,4 %) o‘sadi [7], mahsuldorlik yiliga 4,0 % oshadi.

Ozuqa ehtiyoji bir sigirga 1,6 t o.b. va har 1 kg sutga 0,5 kg o.b., boshqa qoramollarga bir boshga 1,2 t o.b. me’yori bo‘yicha hisoblandi. Boshqa qoramollarning sigirlarga nisbati (Toshkent viloyatida 1,34, Samarqand viloyatida 1,49) o‘zgarmas deb olindi.

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

TAHLIL VA NATIJALAR


Amaldagi qo‘llab-quvvatlash vositalari. Chorvachilikni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash vositalari ancha keng (1-jadval).

1-jadval

Chorvachilikni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning asosiy vositalari

Hujjat	Qo‘llab-quvvatlash vositasi	Yo‘naltirilgan bo‘g‘in
PQ-121 [4]	sut subsidiyasi 200 dan 400 so‘m/l ga, go‘sht subsidiyasi 2 000 dan 4 000 so‘m/kg ga oshirildi; sug‘oriladigan yerning 10 % ida ozuqa ekinlarini almashlab ekish	yakuniy mahsulot, yer
VMQ-434 [5]	subsidiya ajratish tartibi: hujjatlashtirilgan savdo va qayta ishlash korxonasiga topshirish	yakuniy mahsulot
PQ-4576 [6]	naslli qoramol uchun boshiga 1 mln so‘m (mahalliy) va 2 mln so‘m (import)	chorva boshi
PQ-34 [7]	2025–2027-yillarda to‘langan QQSning 50 % ini qaytarish	xo‘jalik faoliyati
PQ-322 [8]	yerning 1 % igacha qismida yengil inshootlar qurishga ruxsat	infratuzilma
PQ-179 [9]	2028-yilgacha 16,5 mln bosh qoramol, ozuqa ekinlari maydoni × 1,5, naslli mollar ulushi 90 %	maqsadli ko‘rsatkichlar

Tahlil amaldagi vositalarning uchta tizimli kamchiligini ko‘rsatdi. Birinchidan, yordamning asosiy qismi yakuniy mahsulotga yoki chorva boshiga yo‘naltirilgan. Fermer xo‘jaliklarining ozuqa ishlab chiqarishi va ozuqa xizmati infratuzilmasi bevosita rag‘batlantirilmaydi. Ikkinchidan, sut subsidiyasini olish hujjatlashtirilgan savdo va qayta ishlash korxonasiga topshirishni talab qiladi. Shu sababli kichik fermerlarning bir qismi va sutning 90 % dan ortig‘ini beruvchi dehqon xo‘jaliklari bu imkoniyatdan amalda chetda qolmoqda [13, 14]. Uchinchidan, naslli mol importiga beriladigan subsidiya ozuqa bilan ta’minlanganlik shartiga bog‘lanmagan. Natijada qimmat naslli sigirlar genetik salohiyatining yarmini ham namoyon eta olmaydi [15, 16].



Manba: Statistika agentligi ma’lumotlari [11] asosida muallif hisob-kitoblari.

1-rasm. Toshkent va Samarqand viloyatlarida sut ishlab chiqarish dinamikasi va 2030-yilgacha ssenariyli prognozi, ming t.

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

Sut ishlab chiqarish prognozi. 2018–2024-yillarda sut ishlab chiqarish Toshkent viloyatida 896,7 dan 1 074,2 ming t gacha (o‘rtacha yillik o‘sish 3,06 %), Samarqand viloyatida 1 241,8 dan 1 456,6 ming t gacha (2,69 %), respublikada 10 466,4 dan 12 443,8 ming t gacha (2,93 %) oshgan [11]. Barcha trend modellarida determinatsiya koeffitsiyenti R^2 = 0,928–0,993 ni tashkil etdi, eksponensial trend biroz aniqroq chiqdi. Prognoz natijalari 1-rasm va 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

2030-yilgacha sut ishlab chiqarish va qoramolning ozuqa ehtiyoji prognozi

Ko‘rsatkich (2030-yil)	Toshkent v.: I	II	III	Samarqand v.: I	II	III
Sut ishlab chiqarish, ming t	1 220,4	1 361,6	1 474,3	1 649,2	1 846,3	1 999,1
2024-yilga nisbatan, %	113,6	126,8	137,2	113,2	126,8	137,2
Bir sigirdan sog‘im, kg	2 654	2 985	3 163	2 197	2 472	2 619
Sigirlar soni, ming bosh	459,9	456,1	466,1	750,5	747,0	763,2
Ozuqa ehtiyoji, ming t o.b.	2 087,0	2 145,4	2 233,7	3 364,9	3 451,3	3 582,8

Ssenariylar o‘rtasidagi farq asosan mahsuldorlikka bog‘liq. II va III stsenariylarda sut inertsion variantga nisbatan 11,6–21,2 % ko‘p, sigirlar soni esa deyarli o‘zgarmaydi. Demak, asosiy manba bosh sonini ko‘paytirish emas, sigirlarni to‘laqonli oziqlantirishdir. Mahsuldorlik oshgani sari 1 kg sutga ozuqa sarfi kamayadi: Toshkent viloyatida 1,78 dan 1,52–1,71 kg o.b. ga, Samarqand viloyatida 2,13 dan 1,79–2,04 kg o.b. ga. Shu sababli III stsenariyda sut 37,2 % ga oshganda ozuqa ehtiyoji atigi 15,2–16,7 % ga ortadi.

Agar ozuqa resurslari 2024-yil darajasida qolsa, taqchillik Toshkent viloyatida 36,2 % dan 41,5–45,3 % gacha, Samarqand viloyatida 53,4 % dan 56,9–59,5 % gacha chuqurlashadi. Samarqandda bosh soni ko‘p va mahsuldorlik past bo‘lgani uchun ehtiyoj o‘sishi ham, 1 kg sutga sarf ham yuqoriroq, bu boshqa tadqiqotlar natijalariga ham mos keladi [20]. Ro‘yxat ma’lumotlari bo‘yicha tuzatilganda (ehtiyoj × 0,851) mutlaq taqchillik kamroq chiqadi (2024-yilda 25,0 % va 45,2 %), lekin stsenariylar nisbatlari saqlanadi.

Qo‘shimcha ozuqa maydoniga ehtiyoj. Qo‘shimcha ehtiyojning yarmi ozuqa ekinlari hisobiga qoplanadi deb faraz qilindi (3-jadval).

3-jadval

2030-yilgacha qo‘shimcha ozuqa ekinlari maydoniga ehtiyoj, ming.ga

Ko‘rsatkich	Toshkent v.	Samarqand v.
Hozirgi ozuqa ekinlari maydoni	30,1	38,1
Qo‘shimcha maydon: amaldagi texnologiyada (5,5 t o.b./ga)	15,7–29,1	23,2–43,0
Qo‘shimcha maydon: optimal tuzilmada (9,9 t o.b./ga)	8,7–16,2	12,9–23,9
PQ-179 bo‘yicha maydonni 1,5 baravar ko‘paytirish	15,1	19,1

Amaldagi texnologiyada maqsadli stsenariy ozuqa ekinlari maydonini 1,97–2,13 baravar kengaytirishni talab qilar edi. Optimal ekin tuzilmasida esa qo‘shimcha maydonga ehtiyoj 45 % ga kamayadi. PQ-179-son qarordagi maydon amaldagi texnologiyada mo‘tadil stsenariy ehtiyojining atigi 61–71 % ini qoplaydi. Optimal tuzilmada esa u ehtiyojni to‘liq qoplab, ortib qolgan 1,8–3,4 ming ga hisobiga mavjud taqchillikni ham qisqartiradi. Taqchillikni

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

yopishning asosiy zaxirasi g‘alladan bo‘shagan maydonlardagi takroriy va oraliq ekinlardir: respublikada har yili 783 ming ga maydonda takroriy ekinlar ekiladi.

Olingan natijalar davlat ko‘magini yakuniy mahsulotdan ozuqa zanjiriga qisman qayta yo‘naltirish zarurligini ko‘rsatadi. Bu bilan amaldagi dasturlar mantiqi buzilmaydi, aksincha, ular ozuqa zanjirining eng zaif bo‘g‘ini bilan to‘ldiriladi. Shu asosda qo‘llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirishning oltita yo‘nalishi taklif etiladi (4-jadval).

4-jadval

Davlat qo‘llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish yo‘nalishlari

№	Yo‘nalish	Taklif mazmuni	Kutilayotgan natija
1	Takroriy ekinlar uchun maydon subsidiyasi	g‘alladan keyin silos uchun ekilgan har bir gektarga 1 mln so‘m (o‘z yerida yoki g‘alla fermeri bilan forvard shartnoma asosida)	ikki viloyatda 65–78 ming ga uchun 65–78 mlrd so‘m; qo‘shimcha 1 o.b. davlatga ≈150 so‘m
2	Kooperativ ozuqa-servis markazlarini qo‘llab-quvvatlash	texnika va silos inshootlari qiymatining 30 % ini qoplash; QQS qaytarish imtiyozini kooperativlarga tatbiq etish [7, 9]	qoplanish muddati 5,2 yildan 3,8 yilga qisqaradi
3	Sut subsidiyasini kooperativ orqali berish	VMQ-434 ga o‘zgartirish: sut yig‘ish punkti orqali topshirilgan dehqon suti uchun 400 so‘m/l, shundan 100 so‘m/l punkt xarajatiga [4, 5]	dehqon xo‘jaliklari subsidiyadan foydalana oladi
4	Naslli mol subsidiyasini ozuqaga bog‘lash	PQ-4576 bo‘yicha subsidiya bir sigirga kamida 0,4 ga ozuqa maydoni yoki ozuqa shartnomasi bo‘lganda beriladi [6]	genetik salohiyatdan to‘liq foydalanish
5	Axborot va o‘qitish	servis markazlari negizida dala maktablari, ratsion tuzish, ozuqa-sut hisobini raqamli platformada yuritish [17, 19]	ozuqa sarfi va sifati ustidan nazorat
6	Xavflarni sug‘urtalash	takroriy ekinlar va silos zaxiralari uchun indeksli sug‘urta [13]	qurg‘oqchil yillarda daromad barqarorligi

Takroriy ekinlar uchun maydon subsidiyasi eng samarali vosita hisoblanadi. Hisob-kitoblarimizga ko‘ra, qo‘shimcha ozuqaning har bir birligi davlatga taxminan 150 so‘mga tushadi. Bu bozordagi konsentrat ozuqa birligi narxidan 20 baravardan ko‘proq arzon. Yerning ikkilamchi bahosi ham shuni tasdiqlaydi: optimallashtirish modelida 1 ga qo‘shimcha sug‘oriladigan yerning ikkilamchi bahosi kichik fermer xo‘jaligida 13,3–14,4 mln so‘m, ixtisoslashgan xo‘jalikda 25,1–30,5 mln so‘m, dehqon xo‘jaligida 22,8–28,7 mln so‘m chiqdi. Bu ijara to‘lovidan bir necha baravar yuqori. Demak, paxta va g‘alla yerlarining bir qismini ozuqa ekinlariga berish [9] va chorvachilik subyektlariga qo‘shimcha yer ajratish [8] iqtisodiy jihatdan asoslidir.

Prognozlarni ehtiyotkorlik bilan talqin qilish lozim. 2025-yilda dehqon va fermer xo‘jaliklarida sut biroz kamaygan, 2026-yilgi ro‘yxat esa qoramollar sonini joriy hisobotdagidan 14,9 % kam ko‘rsatgan [12]. Respublika trendi 2025-yil uchun 12 652–12 703 ming t ni beradi, PQ-34-son qarordagi prognoz esa 13 118 ming t [7]. Demak, davlat maqsadi inertsion trenddan 3,3–3,7 % yuqori. Hududiy rejalashtirishda mo‘tadil stsenariyni asos qilib olish va maydon o‘sishini asosan takroriy va oraliq ekinlar hisobiga ta’minlash maqsadga muvofiq.

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

XULOSA VA TAKLIFLAR

Amaldagi davlat ko‘magi vositalari asosan yakuniy mahsulot va chorva boshiga yo‘naltirilgan. Ozuqa ishlab chiqarish va ozuqa xizmati infratuzilmasi bevosita rag‘batlantirilmaydi, dehqon xo‘jaliklari esa sut subsidiyasidan chetda qolmoqda.

2030-yilga borib Toshkent viloyatida 1 220–1 474 ming t, Samarqand viloyatida 1 649–1 999 ming t sut ishlab chiqarilishi kutiladi. Qoramolning ozuqa ehtiyoji mos ravishda 2 087–2 234 va 3 365–3 583 ming t o.b. ga yetadi.

Resurslar o‘zgarmasa, ozuqa taqchilligi Toshkent viloyatida 45,3 %, Samarqand viloyatida 59,5 % gacha chuqurlashadi. Sut o‘sishining asosiy manbai bosh sonini ko‘paytirish emas, sigirlarni to‘laqonli oziqlantirishdir.

Optimal ekin tuzilmasi qo‘shimcha maydon ehtiyojini 45 % ga kamaytiradi va PQ-179-son qarordagi maqsadli maydon bilan mo‘tadil stsenariy ehtiyojini to‘liq qoplash imkonini beradi.

Davlat ko‘magini oltita yo‘nalish bo‘yicha – takroriy ekinlar uchun maydon subsidiyasi, kooperativ servis markazlarini qo‘llab-quvvatlash, sut subsidiyasini kooperativ orqali berish, naslli mol subsidiyasini ozuqaga bog‘lash, o‘qitish va sug‘urtalash orqali takomillashtirish taklif etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5853-son Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 3-fevraldagi “Oziq-ovqat xavfsizligi to‘g‘risida”gi O‘RQ-1023-son Qonuni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo‘yicha 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-120-son qarori.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-fevraldagi “Chorvachilikni yanada rivojlantirish va chorva ozuqa bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-121-son qarori.

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-iyuldagi “Chorvachilik, parrandachilik va baliqchilik xo‘jaliklariga ular tomonidan yetishtirilgan va sotilgan mahsulotlar uchun subsidiya ajratish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 434-son qarori.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-yanvardagi “Chorvachilik tarmog‘ini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4576-son qarori.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi “Chorvachilik va parrandachilikni qo‘llab-quvvatlash, sohada yuqori qo‘shilgan

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

qiymat yaratish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-34-son qarori.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 31-oktyabrdagi “Aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta’minlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-322-son qarori.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 12-maydagi “Chorvachilik tarmog‘i va yaylov xo‘jaligini zamonaviy boshqaruv tizimi va yangicha yondashuvlar asosida rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-179-son qarori.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 5-apreldagi PQ-113-son qarori.

11. Statistika agentligi. Ijtimoiy-iqtisodiy axborot tizimi (SIAT) ochiq ma’lumotlari: sut ishlab chiqarish. – URL: https://api.siat.stat.uz

12. Statistika agentligi. 2026-yilgi qishloq xo‘jaligi ro‘yxatining dastlabki natijalari (chorva mollari soni). – URL: https://stat.uz

13. Yadgarov A., Rakhimov A. Reforms on the development of the livestock sector and insurance protection in Uzbekistan // E3S Web of Conferences. – 2021. – Vol. 244. – Art. 12012.

14. Urazov J. O‘zbekistonda sut sektorining qiymat zanjirini sanoatlashtirish muammolari // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. – 2025. – № 3(12). – B. 14–17.

15. Toshboev A., Siddikov Z., Narinbaeva G., Muratova M. Increasing efficiency of livestock farming in Uzbekistan // E3S Web of Conferences. – 2024. – Vol. 563. – Art. 03098.

16. Asian Development Bank. Livestock Value Chain Development Project (RRP UZB 52110): Sector Assessment (Summary). – Manila: ADB, 2019.

17. Babayev N., Yorbekova D., Fayzullayev U. Qishloq xo‘jaligi klasterlari va fermer xo‘jaliklari faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. – 2024. – Maxsus son. – B. 351–353.

18. Mirzayev K.J., Amriyeva Sh.Sh. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida agrosanoat majmuini rivojlantirishning strategik yo‘nalishlari // Raqamli iqtisodiyot. – 2026. – № 14.

19. IFAD. Dairy Value Chains Development Project II: Project Design Report (Report № 6595-UZ). – Rome: IFAD, 2024.

20. Nurullayev U.U., Urazov J.S. Qoramolchilikda ozuqa ta’minotini yaxshilash yo‘llari // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. – 2024. – № 2 (maxsus son). – B. 10–12.

21. Горохова Н.П., Ларетин Н.А., Чирков Е.П. Основные направления совершенствования организационно-экономического механизма управления кормопроизводством // Кормопроизводство. – 2003. – № 6. – С. 2–5.

22. Акулова А.А., Полищук П.И. Пути совершенствования организационно-экономического механизма отрасли кормопроизводства // Кормопроизводство. – 2004. – № 4. – С. 2–5.

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

23. Кондратьев Д.В., Остаев Г.Я., Гоголев И.М., Алборов Г.Р. Управление кормопроизводством в сельскохозяйственных организациях: учет, анализ, моделирование и контроль // Продовольственная политика и безопасность. – 2024. – Т. 11, № 4. – С. 1045–1068.

24. Математическое моделирование экономических процессов в сельском хозяйстве / А.М. Гатаулин, Г.В. Гаврилов, Т.М. Сорокина и др. – М.: Агропромиздат, 1990. – 432 с.

25. Еременко О.В. Экономическая эффективность полевого кормопроизводства Курской области: дис. … канд. экон. наук. – Курск, 2007. – 234 с.

26. Толманова Н.Е. Организационно-экономические основы кормопроизводства в молочных хозяйствах пригородной зоны: дис. … канд. экон. наук. – Киров, 2005. – 182 с.

2026-yil, oktabr. №10-son.

Mas’ul muharrir: Beglayev Uchqun
Musahhih: Boltayev Nurali
Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas’ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru
Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal
Telefon raqami: +998939018320, +998934393000
Jurnal rasmiy sayti: https://www.agrobiznesjournal.uz

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha “Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxati”ga kiritilgan.

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №083688

**Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani,
Universitet ko‘chasi, 2-uy**